MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

4-MAXSUS SON

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026
sentyabr-oktabr

Belarus–O'zbekiston

ilmiy-texnik hamkorligi: zamonaviy muhandislik ta'limi, amaliy kvalifikatsiyalar va innovatsion sanoat rivoji



ISSN: 3060-463X

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

РЭУ.РФ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В Г. ТАШКЕНТЕ

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

TOSHKENT YONGINACHI VA YENGIL SANOAT UNIVERSITETI

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, sentyabr/oktabr.

Bosh muharrir:
Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA

AHOLI DAROMADLARI VA TURMUSH DARAJASI: O‘ZARO BOG‘LIQLIK NAZARIYASI 9
Abidova Shahnoza Abduvaliyevna
THE IMPACT OF BUY NOW, PAY LATER SERVICES ON E-COMMERCE SALES 12
Maxmudova Munisaxon Abbos qizi
ROUTE-LEVEL PROFITABILITY ZONES IN RAILWAY PASSENGER TRANSPORT 16
Eshboyev Ulugbek Farxodovich
AHOLI DAROMADLARI VA TURMUSH DARAJASI: O‘ZARO BOG‘LIQLIK NAZARIYASI 20
Abidova Shahnoza Abduvaliyevna
ОПЕРАЦИОННАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ КАК ДРАЙВЕР ESG-ТРАНСФОРМАЦИИ ПРЕДПРИЯТИЙ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ В УСЛОВИЯХ РАЗВИВАЮЩИХСЯ ЭКОНОМИК: ЭМПИРИЧЕСКОЕ ОБОСНОВАНИЕ НА ПРИМЕРЕ ООО «SIRDARYO MEGA LUKS» 23
Ташпулатов Дильмурад Рустамович
PREPARING STATE-OWNED COMMERCIAL BANKS FOR PRIVATIZATION: INSTITUTIONAL TRANSFORMATION, CORPORATE GOVERNANCE, AND CAPITAL MARKET READINESS IN UZBEKISTAN .. 28
Salamov Islam Tashkazakovich
RAQAMLI TO‘LOVLAR ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOT KO‘LAMINI QISQARTIRISH: XITOY TAJRIBASI VA MAKROFISKAL SABOQLAR 34
Shonazarov Ashurali Akabayevich
DIGITAL FACTORS INFLUENCING THE DEVELOPMENT OF THE SERVICE SECTOR IN TASHKENT CITY 37
Abdikayumov Bekzod Turdiniyozovich
METALLARGA MEXANIK ISHLOV BERISH JARAYONLARINI KOMPYUTER MODELLASHTIRISH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH 41
Usmonov Abbos Valijon o‘g‘li
IMPROVING THE MECHANISM FOR EXPERT ASSESSMENT AND CERTIFICATION OF FOOD SAFETY BASED ON QUESTIONNAIRE SURVEYS 45
Mahamatova Maftuna Shukrullo qizi
BEYOND FINANCIAL METRICS: RAILWAY TRANSPORT EFFICIENCY 48
Kurambayev Alisher Saburbayevich
TRANSFORMATSIYALASHUV SHAROITIDA TIJORAT BANKLARINING KREDIT PORTFELINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI 53
Jo‘rayev Eldor Berdibekovich
OPTIMIZING SCHOOL MANAGEMENT THROUGH TERRITORIAL CLUSTERING TO ENSURE AN INCLUSIVE EDUCATION ENVIRONMENT: INTERNATIONAL EVIDENCE AND AN IMPLEMENTATION FRAMEWORK FOR UZBEKISTAN 58
Rajapova Guldona Usman kizi
OPTIMIZATION OF THE FOOD SUPPLY AND DELIVERY SYSTEM IN TASHKENT REGION 62
Mavlanov Sobirjon Pardabayevich
RAQAMLI BANK EKOTIZIMIDA SUN’IY INTELLEKT VA KATTA MA’LUMOTLAR ASOSIDA MIJOZLARGA XIZMAT KO‘RSATISH MODELINI TAKOMILLASHTIRISH 65
Eshqobulova Charos O‘roq qizi
RAQAMLI MOLIYAVIY MUHITDA BANK MIJOZLARINING XAVFSIZ XULQ-ATVORI VA MOLIYAVIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH 67
Eshqobulova Charos, Babanazarova Gulzar

RAQAMLI MOLIYAVIY MUHITDA BANK MIJOZLARINING XAVFSIZ XULQ-ATVORI VA MOLIYAVIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH



Eshqobulova Charos O‘roq qizi
Ma’mun universiteti PhD mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0009-0006-0845-683X
E-mail: eshqobulovac@gmail.com



Babanazarova Gulzar Ziuatdinovna
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Iqtisodiyot fakulteti
Moliya va moliyaviy texnologiyalar kafedrasi assistenti
ORCID: 0009-0001-9832-2125
E-mail: gulzarbabanazarova@mail.ru

Annotatsiya. Tezisda raqamli moliyaviy muhitda bank mijozlarining xavfsiz xulq-atvori va moliyaviy kompetensiyalarini shakllantirish masalalari yoritiladi. Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanishda mijoz bilimlari, raqamli gigiyena, firibgarlik alomatlarini anglash va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish ko‘nikmalarining ahamiyati ko‘rib chiqiladi. O‘zbekiston bank sektoriga oid muallif maqolalari va Markaziy bankning axborot xavfsizligiga doir normativ-huquqiy hujjati asosida muammolar tizimlashtiriladi. Natijada banklar, mijozlar va nazorat institutlari ishtirokidagi amaliy yondashuv taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli moliya, moliyaviy kompetensiya, xavfsiz xulq-atvor, kiberxavfsizlik, firibgarlik, raqamli savodxonlik.

Abstract. The thesis examines the development of safe behavior and financial competencies among bank customers in a digital financial environment. It considers the importance of customer knowledge, digital hygiene, awareness of fraud indicators, and personal data protection skills when using remote banking services. The identified issues are systematized on the basis of the authors’ publications on the banking sector of Uzbekistan and the Central Bank’s regulatory legal document on information security. As a result, a practical approach involving banks, customers, and supervisory institutions is proposed.

Keywords: digital finance, financial competence, safe behavior, cybersecurity, fraud, digital literacy.

Аннотация. В тезисе рассматриваются вопросы формирования безопасного поведения и финансовых компетенций клиентов банков в цифровой финансовой среде. Анализируется значение знаний клиентов, цифровой гигиены, распознавания признаков мошенничества и навыков защиты персональных данных при использовании дистанционных банковских услуг. Выявленные вопросы систематизируются на основе публикаций авторов о банковском секторе Узбекистана и нормативно-правового документа Центрального банка в области информационной безопасности. В результате предлагается практический подход с участием банков, клиентов и надзорных институтов.

Ключевые слова: цифровые финансы, финансовая компетентность, безопасное поведение, кибербезопасность, мошенничество, цифровая грамотность.

Raqamli moliyaviy xizmatlar mijozlarga bank operatsiyalarini masofadan bajarish imkonini beradi. Shu bilan birga, xizmatdan xavfsiz foydalanish faqat bankning texnik himoyasiga emas, balki mijozning kundalik xulq-atvoriga ham bog‘liq. Shubhali havolalarni ochish, tasdiqlash kodlarini boshqa shaxsga berish yoki noma’lum manbaga shaxsiy ma’lumot yuborish kabi holatlar mijozning moliyaviy manfaatlariga xavf tug‘dirishi mumkin [1; 2; 3].

Moliyaviy kompetensiya daromad, xarajat, kredit, to‘lov va moliyaviy xavflar bo‘yicha ongli qaror qabul qilishga yordam beradigan bilim va ko‘nikmalarni qamrab oladi. Raqamli muhitda bu kompetensiyalar raqamli savodxonlik va kiberxavfsizlik odatlari bilan to‘ldirilishi lozim. Tadqiqot maqsadi — bank mijozlarida xavfsiz xulq-atvorni shakllantirish yo‘nalishlarini aniqlash va amaliy takliflar ishlab chiqish.

Raqamli bank xizmatlaridan foydalanish jarayonida mijozning xavfsiz xulq-atvori bir necha amaliy ko‘nikma orqali namoyon bo‘ladi: kuchli va takrorlanmaydigan paroldan foydalanish; bir martalik kod va PIN-kodni oshkor qilmaslik; bankning rasmiy aloqa kanallarini tekshirish; shubhali operatsiya haqida bankka tezkor xabar berish; qurilma va ilovalarni yangilab borish. Ushbu ko‘nikmalar bankning texnik himoya choralari bilan birgalikda qo‘llanganda xavfni boshqarishga ko‘maklashadi [2; 3].

O‘zbekiston bank sektoriga oid muallif materiallarida raqamli xizmatlar kengayishi bilan birga kiberxavfsizlik, masofaviy identifikatsiya va moliyaviy savodxonlik masalalari ham dolzarb ekani ta’kidlangan [1; 2; 3]. Markaziy bank tomonidan tasdiqlangan tijorat banklarining axborot xavfsizligi va kiberxavfsizligiga doir minimal talablar banklar uchun tashkiliy va texnik himoya choralarining me’yoriy asosini belgilaydi [4]. Ushbu talablar mijozlarni xabardor qilish va xavfsiz foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan to‘ldirilishi zarur. O‘zbekistonda kiberxavfsizlik sohasidagi huquqiy bazaning takomillashuvi bank tizimida axborot va kiberxavfsizlik choralarini yanada rivojlantirish uchun huquqiy asoslarni mustahkamlamoqda [5]. Taklif etilayotgan yondashuv mijozlarning moliyaviy savodxonligini oshirish, raqamli xizmatlardan xavfsiz foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish va iste’molchilarni himoya qilishga qaratilgan. Ushbu yo‘nalishlarning xalqaro tavsiyalarga muvofiqlik darajasini baholash uchun tegishli hujjatlar va ularda belgilangan mezonlar asosida alohida qiyosiy tahlil o‘tkazish zarur [6; 7].

Moliyaviy kompetensiyalarni shakllantirishni quyidagi mavzular bo‘yicha tashkil etish mumkin:

- kundalik budjet, kredit majburiyatlari va to‘lov intizomi;
- foiz stavkasi, komissiya va shartnoma shartlarini tushunish;
- fishing, soxta qo‘ng‘iroq, soxta investitsiya taklifi va ijtimoiy muhandislik alomatlarini tanish;
- shaxsiy ma’lumotlar, autentifikatsiya ma’lumotlari va qurilmalarni himoya qilish;
- shubhali operatsiya yuz berganda bankka murojaat qilish va dalillarni saqlash tartibi.

O‘quv tadbirlari faqat umumiy ogohlantirishlar bilan cheklanmasligi maqsadga muvofiq. Banklar mijozlarga qisqa interaktiv mashqlar, sodda tilda yozilgan ko‘rsatmalar, ilova ichidagi xavfsizlik eslatmalari va firibgarlik holatlarini tushuntiruvchi namunaviy vaziyatlarni taklif qilishi mumkin. Materiallar yosh, tajriba va raqamli ko‘nikmalar darajasiga moslashtirilishi, biroq mijozlarni kamsituvchi yoki ortiqcha shaxsiy ma’lumot yig‘uvchi shaklda bo‘lmasligi lozim.

Xavfsiz xulq-atvorni baholash uchun o‘quvdan oldingi va keyingi bilim savollari, shubhali vaziyatni to‘g‘ri aniqlash natijasi, xavfsizlik sozlamalaridan foydalanish ulushi hamda mijoz murojaatlaridagi takrorlanuvchi xatolar tahlil qilinishi mumkin. Firibgarlik hodisalari sonining o‘zi yagona mezon bo‘la olmaydi: qayd etilgan hodisalar miqdori xabardorlik va xabar berish faolligiga ham bog‘liq. Shu sababli baholash bir nechta ko‘rsatkichga tayanishi kerak.

Raqamli moliyaviy muhitda mijozning xavfsizligi bankning texnik himoyasi, mijozning moliyaviy kompetensiyasi va xavfsiz xulq-atvori o‘zaro uyg‘unlashganda mustahkamlanadi. Mijozga xavfni tanish, ma’lumotlarini himoya qilish va shubhali holatda to‘g‘ri harakat qilishni o‘rgatish raqamli xizmatlardan mas’uliyatli foydalanishga yordam beradi.

Banklarga moliyaviy va raqamli savodxonlik bo‘yicha uzluksiz, sodda va amaliy o‘quv dasturlarini joriy etish; firibgarlik usullaridagi o‘zgarishlarga muvofiq materiallarni muntazam yangilab borish; xavfsizlik bo‘yicha xabarlarni mijoz segmentlariga moslashtirish; shubhali holatlar yuzasidan tezkor murojaat kanallarini ko‘rsatish hamda o‘quv samaradorligini bir nechta ko‘rsatkich asosida baholash tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Urolova Ch. Sh. O‘zbekistonda raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish mohiyati va zaruriyati // Yangi O‘zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali. – 2026. – Vol. 5, No. 1. – B. 524–528. – URL: https://phoenixpublication.net/index.php/TTVAL/article/view/12890 (murojaat sanasi: 18.09.2026).
2. Azlarova A. Raqamlashuv jarayonida bank xizmatlari xavfsizligini ta’minlash va aholining moliyaviy madaniyatini yuksaltirish // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2026. – Vol. 4, No. 3. – B. 49–54. – DOI: 10.60078/2992-877X-2026-vol4-iss3-pp49-54. – URL: https://doi.org/10.60078/2992-877X-2026-vol4-iss3-pp49-54 (murojaat sanasi: 18.09.2026).
3. Eshqobulova Ch. Raqamli bank xizmatlarini takomillashtirishda sun’iy intellekt va Big Data texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari // Muhandislik va Iqtisodiyot. – 2026. – Vol. 4, No. 6. – B. 7–10. – DOI: 10.5281/zenodo.20782170. – URL: https://doi.org/10.5281/zenodo.20782170 (murojaat sanasi: 18.09.2026).
4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 1-avgustdagi 19/1-son qarori. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining axborot xavfsizligi va kiberxavfsizligiga doir minimal talablar to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2025-yil 18-avgustda 3669-son bilan davlat ro‘yxatidan

o‘tkazilgan [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/uz/docs/-7689673 (murojaat sanasi: 18.09.2026).
5. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 20-sentabrdagi O‘RQ-964-son Qonuni. Kiberxavfsizlikni ta’minlash sohasidagi qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/uz/docs/-7108720 (murojaat sanasi: 18.09.2026).
6. World Bank. Inclusive Digital Financial Services: A Reference Guide for Policymakers and Regulators. Cybersecurity [Elektron resurs]. – URL: https://digitalfinance.worldbank.org/topics/cybersecurity (murojaat sanasi: 18.09.2026).
7. OECD. Supporting informed and safe use of digital payments through digital financial literacy. – Paris: OECD Publishing, 2025. – 9 p. – DOI: 10.1787/21de47d1-en. – URL: https://doi.org/10.1787/21de47d1-en (murojaat sanasi: 18.09.2026).

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**



+998 93 718 40 07 https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal t.me/yait_2100